



IJTIMOY ISH VA FUQAROLAR HUQUQLARINI TA'MINLANISHI

*Iroda Yoqubova G‘aybulla qizi
Qurbanova Sarvinoz Sunnatilla qizi*

*Sam.DU Kattaqo ‘rg‘on filiali
irodayorqulova266@gmail.com
sarvnozqurbanova@gmail.com*

Ijtimoiy ish ta’lim yo‘nalishi

*Ilmiy rahbar: Ibragimov Jahongir Toshniyozovich
Jahongir.5066@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy ta’midot tizimi konsepsiyalari, omillari va tarkibiy qismlar, ijtimoiy ish va fuqarolar huquqlarini ta’minlanishi, ijtimoiy ishning vazifalari va tamoyillari, ijtimoiy ishning tarkibiy qismlarining o‘ziga xosligi haqida to’liq bayon qilingan.

Kalit so’zlar: ijtimoiy ish, fuqarolar huquqlari, ijtimoiy ta’midot, konsepsiya, ijtimoiy boshqarish.

Kirish:

Ijtimoiy ta’midot masalalarini ma’nosini tushunish uchun unga ta’sir qiluvchi omillar, ilmiy nazariyalar va ular tarkibini o‘rganib chiqishimiz kerak. Birinchidan ilmiy nazariyani aniqlab, muhokama qilib, mazkur nazariyalar nima uchun muhim ekanligini anglab olish zarur. Nazariya-bu aniq va mantiqiy ketma-ketlikdagi fikrlar va faktlarni tashkil qilishdir. Atrof muhit va uning o‘zgartirishda nazariyaning ahamiyati yuqori sanaladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Ijtimoiy tizim istiqbolida ijtimoiy ishlovchilar uchun ko‘p yo‘nalishlar bo‘yicha bilimlar zarur bo‘ladi. Asosan ijtimoiy ishlovchilar ota-onasi ajralgan oilalar farzandlariga ruhiy masalahatlar berishi, kam ta’minlangan shaxslarni iqtisodiy mustaqilligini oshirish va ish bilan ta’minalash, aholini bola tarbiyasiga ko‘maklashish, bolalar bilan qo‘pol muomalada bo‘lmagan holda, mijozlar va shaxslarga tegishli konsultatsiyalar berishlari zarur. Ijtimoiy masalalar va vaziyatlarni hal qilishda qaysi nazariya foydali ekanligini tushunib olish lozim.

Ijtimoiy adolatsizlik va ijtimoiy tengsizlik odatda ziyon yetkazish va kamsitish mahsulotlari sanaladi. Taxminlarga asoslangan mulohaza - bu ijtimoiylashish mobaynida takomillashadigan fikrlash shakli sanaladi. Ijtimoiy iqtisodiy



adolatsizlikni kelib chiqishi aksariyat vaziyatlarda insonlarning irqiy va etnik kelib chiqishiga bog'liq bo'lmoqda. Insonlarning jismoniy va madaniy xususiyatlari jamiyat a'zolari tomonidan bir xil muomalada bo'lmasligi va kamsitilishiga sabab bo'ladi.

Natijalar:

Ijtimoiy ishning tarkibiy qismlarining o'ziga xosligi teng huquqli va to'liq ayollar kamsitilishini bartaraf qilishga qaratilgan ijtimoiy harakatlar kambag'al va rangli xalqlar vakillarini - professional ijtimoiy ish amaliyoti va ijtimoiy ish ta'limi bilan qamrab olindi. Ijtimoiy ish amaliyoti xodimlari masalalarni hal etishda o'z mijozlarining irqiy va madaniy kelib chiqishi bilan tanish bo'lishi, ularni masalalarni muvaffaqiyatli hal qilishga yordamlashadi.

Ijtimoiy harakatlar sababli ijtimoiy ish xodimlari yuqori xavf-xatarda bo'lgan guruh a'zolariga qaraganda jamiyat a'zolarini munosabatlarini o'zgartirishga, siyosat va amaliyotni o'zgartirishga harakat qilishadi. Ijtimoiy ish xodimlari jamiyatda ijtimoiy iqtisodiy adolatsizliklarni kamaytirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash yo'lida amalga oshiriladiga chora-tadbirlarga mas'ul sanaladilar. Ijtimoiy ish xodimlari ijtimoiy adolatlilik konsepsiyasiga oddiy holat sifatida emas, balki yanada kengroq va e'tiborliroq qarashlari kerak bo'ladi.

Muhokama:

Ijtimoiy boshqarish – jamiyatning muayyan sifat jihatlarini tartibga solish va takomillashtirish uchun unga muayyan maqsadda ta'sir qilish sanaladi. Jamiyatning tizimli tabiat, mehnatning ijtimoiy xususiyati, hayot faoliyatida kishilarning muloqotda bo'lish zarurati, moddiy va ma'naviy faoliyati mahsulotlarini ayrboshlash jarayoni bilan bog'liqdir.

Jamiyat hayotida ijtimoiy boshqarishni amalga oshirishda ijtimoiy xodim faoliyati asosiy ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy boshqaruvni amalga oshirish jarayonida ijtimoiy xodim davlat bilan shaxs o'rtasidagi vositachi sanaladi. U o'z fuqarolarini himoya qilishga da'vat qilingan, davlat bilan fuqaro orasidagi hamma ijtimoiy vazifalarni amalga oshirilishida vositachi funksiyasini o'taydi. Ijtimoiy xodim har bir shaxsni o'zini-o'zi himoya qilishi uchun unga huquqiy, psixologik, tibbiy, iqtisodiy va boshqa sharoitlarni yaratishga ko'maklashadi.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, insonda ijtimoiy deprivatsiya vujudga kelgan vaqtda mehnat qobiliyati va ruhiy salomatlikni saqlash uchun mehnat va dam olishni oqilona tashkil qilish, xayrli ijtimoiy maxsus tadbirlar o'tkazish asosiy ahamiyat kasb etadi. Birinchi o'rinda insonga xos turmush sharoitlarini yaratish kerak.



Binobarin, insonning o‘z mehnatiga yarasha iqtisodiy va ijtimoiy taqdirlanishi, mehnat va ijtimoiy munosabatlarning buzilmasligi talab qilinadi. Jamiyat hayotida ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, ularni boshqarish, ijtimoiy xodim va mijoz orasidagi munosabatlarni o‘zgarib borishi jarayonida ijtimoiy ishlarning vujudga keladi. Ijtimoiy ishlar xodimlarning kasbiy malakasini talab qilmaydi va ijtimoiy foydali sanaladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.** Baxtiyorov B.B. O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini manzillilagini kuchaytirish yo‘nalishlari. T. 2018.
- 2.** Vaxabov A.V. Xajibakiev Sh.X. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aholi bandligini oshirish barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash omili sifatida /Termiz, 2016.
- 3.** Ijtimoiy soha iqtisodiyoti: Darslik/ Q.X. Abduraxmonov tahriri ostida. T.: Iqtisodiyot, 2013.
- 4.** Uyda ijtimoiy yordam ko‘rsatish xizmati faoliyatini tashkil etish metodik qo‘llanmasi/ M. Karmanyan, M. Xasanbaev, M. Aminov. T.: Baktria press, 2014.